

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI



«TASDIQLAYMAN»

Navoiy davlat pedagogika instituti
rektori, professor M. Kalonov

2024-yil 09-09

Ro'yxatga olindi 2024/105ANN/1305

2024-yil 09-09

ISTIQLOL DAVRI O'ZBEK ADABIYOTINING
NAZARIY MASALALARI

O'QUV DASTURI

Bilim sohasi:	100000 – Ta'lim
Ta'lim sohasi:	110000 – Ta'lim
Ta'lim yo'nalishi:	70111401 – O'zbek tili va adabiyoti

Navoiy – 2024

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	Kreditlar	
IDÖANN 1305	2023-2024	IV	7	
Fan/modul turi	Ta'lim tili		Haftadagi dars soatlari	
Majburiy	O'zbek		6	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Istiqlol davri o'zbek adabiyotining nazariy masalalari	90	120	210
2.	<p align="center">I. Fanning mazmuni</p> <p>Magistrlarni milliy istiqlol davri adabiyotidagi muammolar, yetakchi tamoyillarni o'rganish, yangilanayotgan turli janrlardagi asarlarning hozirgi davr bilan bog'liqligi, ularning milliy istiqlol g'oyasi bilan dahldor jihatlarni tahlil va talqin qilishga o'rgatish.</p> <p align="center">II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</p> <p align="center">I-Modul: Milliy istiqlol va o'zbek adabiyoti</p> <p align="center">1-mavzu. Kirish. Istiqlol davri o'zbek adabiyotining taraqqiyot tamoyillari</p> <p>XX asrning 90-yillari istiqlol adabiyoti deb atalmish estetik hodisani yuzaga chiqardi. Istiqlol davri o'zbek adabiyoti ko'p asrlik milliy adabiyotimizning mantiqiy davomi va merosxo'ri sifatida dunyoga keldi. Mustaqillik davri milliy adabiyot taraqqiyoti tarixidagi oddiy xronologik bosqich emas, balki bir qator jiddiy o'ziga xos jihatlarga ega bo'lgan alohida badiiy-estetik hodisadir. Istiqlol davri o'zbek adabiyoti tubdan o'zgargan milliy ongning, tamomila yangilanayotgan estetik tafakkurning mahsuli o'laroq tug'ildi. U yagona hukmron mafkura tazyiqidan qutulgan, dunyoni har xil anglash, izohlash hamda tasvirlash imkoniyatiga ega bo'lgan millat ijodiy dahosining samarasi sifatida dunyoga keldi.</p> <p>Istiqlol davrida adabiyot sohasidagi yangilanishlar. Adabiy jarayonning asosiy tamoyillari. Badiiy adabiyotning mavzu, janr, g'oyaviy-badiiy xususiyatlarining yangilanishi.</p>			

2-mavzu: Istiqlol davri she'riyati

Hozirgi o'zbek she'riyatining asosiy xususiyatlari. She'riyatda shakliy izlanishlar. Istiqlol davri o'zbek adabiyotida zamonaviy realistik tasvir, musiqiylik va boshqa san'at turlari bilan kechayotgan sintez jarayonlari: bahslar, ilgari surilayotgan konsepsiyalar. Yangi o'zbek she'riyatida vazn, mavzu, lirik qahramon masalasi.

3-mavzu: She'riyatda yangicha shakliy va uslubiy izlanishlari

Mustaqillik davrida adabiyotida she'riyatning yetakchi turga aylanishi. Shakliy va uslubiy yangilanishlar. Rauf Parfi, Halima Xudoyberdiyeva, Azim Suyun, Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Ikrom Otamurod, Farida Afro'z, Abduvali Qutbiddin, Aziz Said, Iqbol Mirzo, Bahrom Ro'zimuhammad, Muhammad Yusuf, Faxriyor, Zebo Mirzo, Tursun Ali, Asqar Mahkam, Halima Axmad singari shoirlarning she'rlarida olamni poetik idrok etish yangi bosqichga ko'tarilgani. Poetik fikr va ifodaning matn ostiga singishi. Badiiy tafakkurning yangilanishi.

4-mavzu: Modern she'riyati

Milliy she'riyatda modernizm adabiyotiga xos belgi va ifodaning aks etishi. Modern she'riyat va an'anaviy she'riyat. Modern adabiyot haqidagi bahslar. She'riyatda uslubiy poetik yangilanishlar. Faxriyor, Bahrom Ro'zimuhammad, Tursun Ali, Abduvali Qutbiddin she'riyatida modernizmga xos tasvir va ifoda.

5-mavzu: Bugungi o'zbek dostonchiligi

Davr va doston. Liro-epik dostonlar tabiati. Zamonaviy dostonlarda tasvir va shakliy izlanishlar. "Xotiram siniqlari" (Zulfiya), "Ayolg'u" (Faxriyor), "Izohsiz lug'at" (Abduvali Qutbiddin), "Yobondagi yolg'iz daraxt" (Ikrom Otamurod), "Nilufar" (Nodir Jonuzoq) dostonlarida zamonaviy va an'anaviy shakliy-uslubiy izlanishlar. Liro-epik janrlar tasnifi. Yangi dostonlar tahlili.

6-mavzu: Istiqlol davri o'zbek nasri

Ijodiy tajribalar qilish, kutilmagan tasvir yo'sinlarini qo'llash, badiiy ifodaning tutilmagan, yangi vositalaridan foydalanish o'zbek nasrining bu bosqichi uchun yetakchi xususiyatlar aylangan; nasrning taraqqiyot tamoyillari. Obraz va tasvirdagi yangilanishlar. "Ming bir qiyofa", "Ko'zgu oldidagi odam", "Tepalikdagi xaroba", "Ffu", "Ayollar saltanati va mamlakati", "Maydon" (O.Muxtor) romanlari, Nazar Eshonqulning jahon prozasining eng ilg'or tajribalari asosida sof milliy obrazlar yaratgan "Qora kitob" qissasi, "Shamolni tutib bo'lmaydi", "Tubut shahar", "Quyun" hikoyalari, Xurshid Do'stmuhammadning "Bozor" romani, "Jajman", "Ibn

Mug'anniy", "Qorachiqdagi uy" hikoyalari tasvirning quyuqligi, inson ruhiyati qatlamlarini aks ettirish miqyosining kengligi va ifoda tarzining favquloddaligiga ko'ra milliy adabiyotimiz uchun yangi badiiy hodisalarga aynishi.

7-mavzu: Bugungi o'zbek hikoyachiligi

Hikoyaning janr tabiatida tavsifiy-rivoyaviy tipdan novellistik tip sari siljish kuzatilishi. Janrda g'oyaviy-tematik ko'lamning kengayishi, gumanistik mazmun va psixologik tahlilning kuchayishi, ijtimoiy-axloqiy, ma'naviy, oilaviy konfliktlarning keskinlashishi, milliy kolorit va individual maneralarning ortishi. Hikoyalarni o'z xarakteriga ko'ra turli yo'nalishlarga ajratish mumkinligi. Hayotning mohiyatini, insonning hayotdagi o'rnini, yashashdan maqsadi kabi masalalarning mohiyatini ochib beruvchi falsafiy hikoyalar. Mustaqillik davri o'zbek adabiy tanqidchiligidagi zamonaviy hikoyachilik talqin va tahlillari.

8-mavzu: Istiqlol davri o'zbek qissachiligi

Epik turning asosiy janrlaridan biri bo'lgan qissa rivoyaviy asar ekanligi. Unda qahramon hayotining bir bosqichi qalamga olinishi. Barcha voqealar qahramon atrofida uyushtirilishi. O'zbek qissachiligidagi Sh.Xolmirzayev, O'.Hoshimov, M.Muhammad Do'st, E.A'zam, X.Sulton, Nazar Eshonqul, Ulug'bek Hamdam, Sobir O'nar, Abduqayum Yo'ldosh izlanishlari samaralari. Jamiyat tizimining o'zgarishi hayotda tub iqtisodiy burilish yasashi, adabiyotda bir qator ijtimoiy muammolarning, xususan, qissalarda o'z ifodasini topishi, milliy qadriyatlar va ma'naviyatga e'tiborning kuchayishi. Zamonaviy qissachilik muammolarining tanqidchilikdagi tahlil va talqinlari.

9-mavzu: Zamonaviy o'zbek nasrida yangi inson konsepsiyasi

Badiiy adabiyotda yangi inson qiyofasini tasvirlash. Bugungi ijtimoiy mahitda namoyon bo'layotgan yangi tipdagi insonning ham ichki ham tashqi olamini, umuman uning o'ziga xos, konsepsiyasi muammosini o'rganish. Badiiy adabiyotda yangi inson konsepsiyasining tadqiqi. Insonning ma'naviy olami, shaxs erki va huquqi kabi qator masalalarni yangicha aspektda o'rganish. Inson qarashlarini turli aspektlardan, xususan, ijtimoiy-falsafiy, psixologik, diniy, ekzestensialistik, antik, simfonik, ijtimoiy-biologik, badiiylik nuqtai nazaridan tadqiq etilishi.

O'zbek adabiyotshunosligida zamonaviy shaxs va uning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, madaniy qarashlarini tadqiq etishga mustaqillik yillarida yangicha tamoyillarga tayanib e'tibor berila boshlanishi; inson ruhi, dunyoqarashi, intilishlarini milliy ruhni saqlagan holda umuminsoniy tamoyillar asosida shakllantirishga qaratilgan jamiyatdagi islohotlar; adabiy qahramon va uning timsolida yangi inson konsepsiyasining badiiy

ifodalanishi kuchayib borishi; ijtimoiy ong shakli sifatida o'zida xalq o'tmishi, buguni va kelajagini aks ettiradigan o'zbek adabiyoti, xususan, o'zbek nasrida yuz berayotgan evrilishlar.

10-mavzu: Tarixiy va zamonaviy romanchilik

Roman – epik turning yirik hajmli janri. Romaniy problema, romaniy qahramon va romaniy tafakkur bu janrning belgilovchi xususiyatlari ekani. Romanning jamiyat ma'naviy taraqqiyotida, inson kamolotida tutgan o'rnini. Uning taraqqiyotidagi asosiy tendentsiyalar. Davr o'zgarishi bilan roman mavzusini o'zgarishi. Hayotning turli mavzularida ijod qilishning boshlanishi. Mustaqillik davri romanlariga xos belgi-sifatlarining adabiy tanqidchilikdagi tahlil va talqinlari.

Istiqlol davrida yaratilgan o'zbek romanlariga xos xususiyatlar. Hozirgi romanlarda falsafiy-estetik asos konsepsiya, hozirgi tarixiy romanlar, hozirgi trilogiyalar. Yangi davr o'zbek romanchiligidagi janriy izlanishlar.

II-Modul: Istiqlol adabiyotining nazariy muammolari

11-mavzu: Bugungi o'zbek nasrida modernizm va postmodernizm

Modernizm va o'zbek nasri. Adabiy tanqidida modernizm, absurd adabiyot va postmodernizm haqidagi bahslar. Milliy nasrda shakl va janriy yangilanishlar. I.Sulton romanlarida postmodernizm belgilari.

12-mavzu: Badiiy tahlil va talqin muammolari

Badiiy adabiyot janrlarining o'ziga xos xususiyatlari. So'nggi davr poeziyasidagi ijodiy uslubiy izlanishlar va uning tanqididagi talqini. Ushbu mavzu orqali talabalarga istiqol davri o'zbek she'riyatining taraqqiyot tamoyillari to'g'risida ma'lumot berish, ularning ijodkor badiiy-estetik tafakkuri haqidagi tushunchalarini kengaytirish. Talabalarga dostonlar tahlili orqali bugungi o'zbek poemachiligida izlanish, yasharish, yangilash jarayonlari xususida bilim berish. Lirika va epik poeziya muammolarining tanqidchilikdagi tahlil va talqinlari.

Germetevik tahlil. Struktural tahlil. Talqin va baholash. Matn –muallif-kitobxon konsepsiyasi. Qahramon dunyoqarashini anglash va baholash. Jahon adabiyotining ilg'or metodlari.

13-mavzu: Mustaqillik davri adabiy tanqidchiligi

Adabiy tanqidning mafkura tushovlaridan qutulib, erkin ijod yo'liga o'tishi. Adabiy jarayon va adabiy tanqid. Tanqidchilikda ijodiy metodga bo'lgan munosabat yangilanishi va adabiy-estetik konsepsiya turfa lashuvi. Ijod erkinligi. Estetik tahlil – adabiy tanqidchilikning asosiy mezonini. O'zbek adabiy tanqidchiligi namoyandalari (M.Qo'shjonov, O.Sharafiddinov, N.Karimov, U.Normatov, B.Nazarov, A.Rasulov, Q.Yo'ldoshev, I.Haqqul) adabiyotshunoslik va adabiy tanqidchilik faoliyati. Davr adabiy-tanqidiy

tafakkurida o'z o'rniga ega bo'lgan olimlarning faoliyati haqida umumiy ma'lumot. Ijod erkinligi. Adabiy-badiiy tafakkurning yangilanish omillari. Milliy g'oya va umumshahar mezonlar nuqtayi nazaridan yoritilgan muammolar: mumtoz adabiyot va uning yorqin siymolari ijodini o'rganish; sho'ro bosqichi adabiyoti namunalarini qayta baholash; qatag'on etilgan adiblarga munosabat. Adabiy-badiiy tafakkurdagi yangilanish omillarining mohiyati va sabablarini o'rganish. Hozirgi adabiy jarayondagi evrilishlar.

14-mavzu: Badiiy adabiyot va adabiy-nazariy tafakkur munosabatlari

Yangilanayotgan metodologiya. Tahlil va talqin yo'sinlariga e'tiborning o'rinishi. Badiiy asarga badiiy estetik hodisa sifatida yondashuv tamoyili. Badiiy asarda inson konsepsiyasi. Adabiyotning ijtimoiy va estetik tamoyillari atrofida bahs-munozaralar.

15-mavzu: Adabiy jarayon va tarjima adabiyoti

Adabiy jarayon milliy va madaniy merosning ajralmas qismi sifatida. Adabiy jarayon va adabiy tanqid, adabiy-nazariy qonuniyatlar va yo'nalishlar. Adabiy jarayon va tarjima adabiyoti, badiiy adabiyot va nazariy adabiyotning o'zaro aloqasi va bir-birini boyitishi. Badiiy adabiyot janrlarining o'ziga xos xususiyatlari. Badiiylik va zamonaviylik prinsipi.

Jahon adabiyotining nodir asarlarining o'zbek tiliga tarjima qilinishi. Aslyatdan tarjima. J.Oroel, J.Joys, F.Kafka, K.Hamsun asarlari tarjimalari. Tarjima va mahorat.

III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

1. Istiqlol davri adabiyotining asosiy xususiyatlari
2. She'riyatda tarix va Istiqlol mavzusining ifodalanishi
3. Modern yo'nalishdagi she'riyat. R.Parfi, Faxriyor, A.Quddiddin, B.Ro'zimhammad ijodi
4. Bugungi o'zbek nasrining yetakchi tamoyillari
5. Yangi o'zbek hikoyachiligida milliylik ifodasi va badiiy mahorat masalasi
6. E.A'zam, N.Eshonqul, U.Hamdani hikoyalarida davr va inson muammosi
7. Bugungi o'zbek romanchiligida tarix mavzusi
8. Romanchilik va postmodernizm.
9. Istiqlol davri qissachiligida davr va shaxs fojealari tasviri
10. Bugungi o'zbek dramaturgiyasi
11. Tarixiy va zamonaviy dramalar tahlili
12. Istiqlol davri adabiyoti va adabiy tanqidchilik
13. Badiiy asarni yangicha talqin va tahlil qilish tamoyillari
14. O'zbek va jahon adabiyoti masalalari. Tarjima adabiyoti
15. Globallashuv davrida adabiyotning o'rni

IV. Laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

1. Istiqlol davri adabiyotining nazariy masalalari
2. Badiiy asarga yangicha yondashuvlar
3. Germenevtik va struktural tahlil
4. Istiqlol mohiyati aks etgan she'riyat
5. Modernizm va modern yo'nalishdagi she'riyat
6. Bugungi o'zbek dostonchiligida janr va shakliy izlanishlar
7. Hikoyalarda ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy masalaning badiiy talqini
8. Modernizm ruhida hikoyalarda xarakter va g'oya
9. Istiqlol davri qissalarida ma'naviy-axloqiy va fojilikning badiiy ifodasi
10. Yangi yo'nalishdagi romanlar va obrazlar
11. Istiqlol davri dramalarida tarixiy voqelik va badiiy to'qima
12. Adabiyot va matbuot. Internet adabiyoti
13. Istiqlol davri adabiyotida modernizm haqida bahslar
14. Postmodern adabiyotiga xos uslubiy izlanishlar
15. Bugungi o'zbek adabiyoti va yoshlar ijodi

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Tinglovchilar mustaqil ta'limni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlari hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi.


- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari hamda mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha mavzular ustida ishlash;
- talabning o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;
- masofaviy ta'lim.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Seminar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik kurish va uy ishlarini bajarish.
2. Istiqlol davri o'zbek she'riyat, nasei va dramaturgiyasida yaratilgan asarni o'qib tahlil qilish (ilmiy mulohaza yozish)
3. Tavsiya etilgan asarlarni tahlil va talqin qilish
4. "Modern adabiyoti va bugungi she'riyat", "Badiiy asarni tekshirish va

	<p>baholash" mavzularida ilmiy mant yozish</p> <p>5. "Postmodernizm va bugungi nasr" mavzusida tanqidiy material tayyorlash</p> <p>6. Anjumanga tezish tayyorlash</p> <p>7. O'qilgan asarlar bo'yicha taqdimotlar tayyorlashminar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik kurish va uy ishlarini bajarish.</p>
3.	<p>VI. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Tinglovchi bilishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Adabiy tanqid tarixining muhim poetik-estetik qirralarini mujassam qilgan adabiy asarlarni o'rganish orqali badiiy-falsafiy qarashlardagi nazariy-badiiy evolutsiyani ko'rsatib berish hamda badiiy adabiyot tarixi va adabiy-nazariy tafakkur tadrijining shaxs va jamiyat hayotidagi o'ri va ahamiyatini ochib berish, talabalarning adabiy-estetik tafakkurini, yuksaltirish, ilmiy mushohadaning vujudga kelishi hamda nazariy jihatdan tahlil qilish va talqin ko'nikmalarini hosil qilish; (bilim) • tinglovchi mustaqil ish, amaliy mashg'ulot jarayonida adabiy tanqidchilikka doir asarlarni tahlil qilish, o'zining ijodiy, tanqidiy mulohazalarini bayon eta olishi, qiyosiy-tipologik tahlil qilishni bilishi lozim (ko'nikma) <p>badiiy adabiyotga jamiyat tarixi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, insonni ezgulik va ma'naviy barkamollikka boshlovchi g'oyalalar hamda inson ruhiyatiga aloqador eng pok tuyg'u va kechinmalar in'ikosi sifatida munosabatda bo'lish, shuningdek, jahon adabiyoti namunalarni adabiy-estetik hamda ilmiy-nazariy nuqtayi nazardan tahlil va talqin qilishda faol ijodkorlik ruhi va mas'uliyati malakalariga ega bo'lishi kerak.</p>
4.	<p>VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruza; • keys-stadi; • individual loyihalar; • taqdimotlar qilish; • guruhlarda ishlash; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish; • "BBB", "Tarozi", "SWOT-tahlil", "Sinkveyn", "FSMU", o'yin, musobaqa.
5.	<p>VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur.</p>

6.	<p>IX. Asosiy adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Karimov H. Istiqlol davri adabiyoti. Toshkent, 2007. 2. Rasulov A. Badiiylik-bezavol yangilik. Toshkent, "Sharq" NMK.-2007 3. Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. 4. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. – Toshkent: Sharq, 2007 5. Ra'ximjonov H. Mustaqillik davri Uzbek she'riyati. –T.: Fan, 2007 6. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent: 2004 7. Xamdamov U. Badiiy tafakkur talriji. T.: Yangi asr avlodi, 2002. <p>Qo'shimcha adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Qahramonov Q. Adabiy tanqid: yangilanish jarayonlari.-T.: Milliy kutubxona nashriyoti, 2009 2. Juraqulov U. Xududsiz jilva. –Toshkent: Fan, 2006 3. Juraev T. Ong okimi modern. – Fargona, 2009 4. Karimov X. Istiqlol davri nasri. – Toshkent: Zarqalam, 2007. <p>Karimov B. Ruxiat alifbosi. –Toshkent: F.Gulom nomida adabiyot va san'at nashriyoti, 2016</p> <ol style="list-style-type: none"> 5. Normatov U. Umidбахш tamoyilllar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000 6. Ra'ximjonov H. Istiqlol va bugungi adabiyot. T.: "O'qituvchi", 2020 <p>Axborot manbalari</p> <p>http://www.ziyouz.uz http://www.jahonadabiyoti.uz http://www.sharqvulduzi.uz</p>
7.	<p>Navoly davlat pedagogika instituti tomonidan ishlab chiqilgan va Institut Kengashining 2024- yil ___-avgustdagi qarori bilan tasdiqlangan</p>
8.	<p>Fan/modul uchun mas'ullar va dastur muallifi:</p> <p>"O'zbek tili va adabiyoti" kafedrası dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori  Z. Quvonov</p>
9.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>B. Ashurov – NDPI, "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrası dotsenti, f.f.n. G. Murodov – BuxDU professori, filologiya fanlari doktori</p>

Kafedra mudiri 
№: BTB-13/SM

f.f.d. A. Xolmurodov